



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



8/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

8/2023



E-ISSN 2181-1466  
9 772181 46004



ISSN 2181-6875  
9 772181 687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

<b>Ширинова М.Ш.</b>	Мустақиллик даври ўзбек кинофильмлари тилида эгаллик ва келишик воситаларининг қўлланиши	121
<b>Ёкубова Ш.Ю., Юсупова А. Ш.</b>	Глагол и простая структура предложения в узбекском языке	125
<b>Норов Ж.Н.</b>	Метафора — лингвокультурологиянинг энг муҳим бирлиги	129
<b>Ҳасанова М.Т.</b>	Билингвизмнинг мазмун-моҳияти ва психологик табиати	136
<b>Rakhimov M.M.</b>	Semantic functional features of the concept of “road”	140
<b>Хоҗиёева М.У.</b>	Badiiy nutqda shaxs tavsifli soʻz birikmalar	145
<b>Саидова З.Х.</b>	Проблемы, связанные с современной русской грамматикой и грамматикализацией	149
<b>Rahimov M.M.</b>	Korpus lingvistikasi taraqqiyoti va oʻzbek tilshunosligida korpus tahlil asoslari	154
<b>Sadikova G.I.</b>	Developing reading comprehension of expository texts in English by using effective reading strategies	160
<b>Базарова Н.Ш.</b>	Сравнительный анализ фонологических систем русского и узбекского языков в контексте методического подхода	164
<b>Shayzakov Gʻ. M.</b>	Oʻzbek tilida zamon maʼnosining lisoniy-pragmatik ifodalanishi	172
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Teshayeva G.J.</b>	Adabiy parallel janri taraqqiyotining ayrim masalalari	176
<b>Рахимова Н.Қ.</b>	Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод”ида “Дил ба ёр”лик моҳияти	181
<b>Очилова Н.У.</b>	Ўзбек халқ оғзаки ижодида “от” образи	186
<b>Рахимова М.Э.</b>	Составление плана-указателя и анализ стихотворного текста как виды самостоятельной работы школьников	191
<b>Yoʻldosheva M.B.</b>	Badiiy tarjimaning oʻziga xos muammolari va ularni bartaraf etish usullari	196
<b>Юлдашева Л.У.</b>	Мост между культурами: переводческое и литературное наследие Абдуллы Каххара в узбекской литературе	201
<b>Shomurodova S.Gʻ.</b>	Xalq dostonlarida kiyim-kechaklar bilan bogʻliq motivlarning tasviri	207
<b>Астанова Г.А.</b>	“Минг бир кеча”да бадий маҳорат	211
<b>Kasimova R.R.</b>	Alisher Navoiy gʻazallari inglizcha tarjimasida shoir va mutarjim psixologiyasi	216
<b>Abdullayeva F.A.</b>	“Ayriliq ostonasi” romanida tarixiy voqelikning badiiy ifodasi	224
<b>Eshonqulova G.T</b>	Preserving the implicitness of the original in translation	229
<b>Ashurov J.A.</b>	Erle Stanley Gardner’s descriptive language in his novel “The case of the velvet claws”	233

UO'K: 821/9

### ADABIY PARALLEL JANRI TARAQQIYOTINING AYRIM MASALALARI

*Teshayeva Gulnoza Jamshidovna,*  
Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik  
(o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti  
gulnozateshayeva1999@gmail.com

**Annotatsiya.** O'zbek adabiy tanqidchiligi istiqlol yillariga kelib har tomonlama ko'lamdorlik kasb etdi. Badiiy asarga baho berish, uni jahon miqyosida tahlil etish ufqlari kengaydi. Ayniqsa, ijod erkinligining, fikrlash ozodligining rivoj topishi adabiy-tanqidiy qarashlar salmog'ini oshirib yubordi. Munaqqidlik sohasida yetuk olimlar faoliyat ko'rsatdilar. Adabiy tanqidning barcha janrlarida, shu jumladan, adabiy parallel janrida ham barkamol asarlar maydonga keldi. Adabiyotshunos va tanqidchilar A.Rasulov, Y.Solijonov, S. Meli, M.Xolbekov, Sh.To'ychiyeva, Q.Ergashev, A.Allamberganovlar mazkur janrda tadqiqotlar yaratishdi. Ushbu maqolada istiqlol davrida yaratilgan adabiy parallellarning janriy belgilari, o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan, adabiy parallel mustaqil janr sifatida mazkur davrdagi taraqqiyoti o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** istiqlol davri tanqidchiligi, mikroanaliz, adabiy parallel, spetsifik xususiyatlar, janr kompozitsiyasi, uslubiy o'ziga xosliklar, modernism, qiyosiy tipologiya, maqola sarlavhasi.

### НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЖАНРА

**Аннотация.** К годам независимости узбекская литературная критика приобрела всесторонний размах. Расширился кругозор оценки художественного произведения, его анализа в мировом масштабе. В частности, развитие свободы творчества, свободы мышления преувеличило вес литературно-критических взглядов. В области критики работали зрелые учёные. На арену вышли совершенные произведения во всех жанрах литературной критики, в том числе и в жанре литературного параллелизма. Литературоведы и критики А.Расулов, Ю.Солижонов, С.Мели, М.Холбеков, Ш.Туйчиева, К.Эргашев, А.Алламберганы создали исследования в этом жанре. В данной статье анализируются жанровые признаки, специфика литературных параллелей, созданных в период независимости, исследуется их развитие в период независимости как литературного параллельного самостоятельного жанра.

**Ключевые слова:** критика периода независимости, микроанализ, литературная параллель, специфика, жанровая композиция, стилевые особенности, модернизм, сравнительная типология, заголовок статьи.

### SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF THE PARALLEL LITERARY GENRE

**Abstract.** By the years of independence, Uzbek literary criticism had acquired a comprehensive scope. The horizons of the evaluation of a work of art and its analysis on a global scale have expanded. In particular, the development of creative freedom, freedom of thought has exaggerated the weight of literary and critical views. Mature scientists have worked in the field of critics. Perfect works in all genres of literary criticism, including in the genre of literary parallelism, entered the arena. Literary critic and critic A.Rasulov, Y.Solijonov, S. Meli, M.Xolbekov, Sh.To'ychiyeva, K.Ergashev, A.Allamberganov created studies in this genre. This article analyzes genre features, the specifics of literary parallels created during the period of independence, examines their development during the period of independence as a literary parallel independent genre.

**Keywords:** criticism of the period of independence, microanalysis, literary parallel, specificity, genre composition, stylistic features, modernism, comparative typology, article title.

**Kirish.** O'zbek xalqining azaliy orzusi hisoblangan milliy mustaqillik tufayli ko'plab sohalar qatorida ma'naviy ishlar borasida ham juda ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hayotimizda mavjud bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy masalalarga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Zero, globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlarining hayotiy zarurati oshib borishini hayotning o'zi isbotlab turibdi. Shu qatorda badiiy adabiyot,

adabiyotshunoslik va tanqidchilik sohalarida ham jiddiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Sobiq sho'ro davridagi mafkura ta'sirida adabiyot faqat bir tomonlama tahlil qilingan bo'lsa, istiqloq davrida adabiyotni mumtoz adabiyotimiz, jahon ma'naviyati va estetik madaniyati kontekstida o'rganishga sharoit yaratildi. Adabiy tanqidchilikda sof estetik nazariy ilmlar va badiiyat nuqtayi nazaridan tahlillar amalga oshirilmoqda. "Istiqloq davri tanqididagi yangilanish tamoyillari keng qamrovli bo'lib, unda yangilanayotgan metodologik asoslarni chuqur anglash, adabiy tanqid tafakkuridagi yangilanish jarayonlari va omillarini o'rganish, madaniy merosni, xususan, XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash yuzasidan adabiy jarayonda kechgan va kechayotgan izlanishlarni turli yondashuv va usullar asosida yangicha o'rganishni kasb etish, masalaga milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish tamoyillarini o'zlashtirish, ayni chog'da, adabiy jarayondagi ilma-xil shakl va uslub izlanishlarini badiiylikning yangicha mezonlari asosida tadqiq etish bosh masalaga aylandi"[1:214]. Adabiy parallel janri ham mustaqillik davrida zamon talablariga binoan o'z maqsad va vazifalari jihatidan yangilanib bormoqda, mumtoz adabiyotimizga e'tibor kuchaymoqda. Shu bilan bir vaqtda, o'zbek adabiyoti namunalari jahon adabiyoti kontekstida o'rganish boshlandi.

**Asosiy qism.** Mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligiga xos yana bir xususiyat shuki, bu davrga kelib ilg'or jahon adabiyoti va tanqidchiligining milliy tanqidchiligimizga ta'sirining kuchayganligi bo'ldi. Mazkur xususiyat adabiy parallel janriga mansub asarlarda ham o'z aksini topdi. Jumladan, Muhammadjon Olbekovning "Shekspir va Marlo" maqolasida [2:67] ikki buyuk ingliz dramaturglarining hayot va ijod so'zlarini biografiyaviy metod orqali qiyoslangan. Bundan tashqari ular yaratgan tragediyalarning mushtarak va foydali jihatlari tahlil qilingan.

Bu davrga kelib modernizm, absurdizm, avangardizm, neorealizm, postmodernizm, strukturalizm, egzistensializm kabi yo'nalish va maktablarga adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning munosabati o'zgarib bormoqda. Mazkur masalalar bo'yicha bir qator adabiyotshunos va tanqidchilarning ilmiy tadqiqot va maqolalari dunyo yuzini ko'rdi. Adabiyotshunos Shaxnoza To'ychievaning "Cho'lpon va Kamyu" nomli maqolasida "Kecha va Kunduz" hamda "Begona" romanlarining ayrim tipologik xususiyatlari absurdizm yo'nalishi bo'yicha tahlilga tortilgan [3:45]. Cho'lpon va Kamyu qo'llagan usullarning chog'ishtirilishi orqali stilistik usullarning umumiy o'xshashlik va farqlari aniqlangan. Maqolada parallel janri xususiyatlariga xos bo'lgan qiyoslanayotgan obyektlarni birlashtirib turuvchi jihatlari, so'ngra har bir asarga xos bo'lgan original jihatlari keltirib o'tilgan. Ikkala voqeada ham jinoyat sodir etilgan, yozuvchilar ikkala holda ham kitobxonni XX asrning tarixiy – ma'naviy chorraxasiga olib chiqadi: Cho'lpon ham Kamyu ham adolatsizlik bilan yakkama-yakka qolgan yolg'iz shaxs taqdirini qalamga oladi. Maqolada ikkala asarlardagi sud jarayonlari romanlarda keskin burilish yasashi, A.Kamyu ta'biri bilan aytganda, "birinchi qism ikkinchi qism uchun oyna vazifasini bajarishi" va aynan shu jarayonlar kitobxonda absurd tuyg'usini keltirib chiqarishi ta'kidlangan. Sud zalining tasviri ham ikkala asarda o'xshab ketadi. Tadqiqotchi maqolaning keyingi qismida har ikkala yozuvchilarga xos bo'lgan individual uslub, asarlarning farqli jihatlari tahlil qiladi. Xulosada esa ikki romanning badiiy – g'oyaviy xususiyatlari, ularning bugungi kundagi ahamiyati, yozuvchilarning erk va ozodlik g'oyalari haqida umumlashtiruvchi fikrlarini keltiradi.

Filologiya fanlari doktori Yo'ldosh Solijonovning "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Ikki eshik orasi"dan "Lolazor"ga o'tguncha" maqolasi ham adabiy parallel janriga misol bo'ladi. Maqolaning kirish qismida tanqidchi XX asrning 80-90-yillarida o'zbek nasrida yuzaga kelgan qator yangilanishlar, jumladan, Sharq mumtoz an'analari ergashgan holda G'arb modernistik adabiyotining eng yaxshi xususiyatlarini ijodiy o'zlashtirish jarayonining kechayotganligi, yaratilayotgan asarlarga faqat g'oyaviy nuqtayi nazardan emas, balki nutqiy jarayondagi yangiliklar tomonidan ham tahlil qilinayotganligi ko'rsatiladi.

Muallif har ikkala yozuvchining o'ziga xos uslubi mavjudligini ta'kidlaydi. Mazkur uslubiy o'ziga xosliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. O'tkir Hoshimov tarixiy ana'analariga yangicha yondashsa, Murod Muhammad Do'st G'arb adabiyoti an'analari ijodiy o'zlashtirib, uni Sharq nasri tajribalari bilan omuxtalashtira olgan.

2. "Ikki eshik orasi" romanining hikoya tarzida muallif Sharq nodir asarlariga yaqin usulni tanlagan. "Lolazor"da esa umuman o'zgacha tarzidagi hikoya usulidan foydalanilgan.

3. O'tkir Hoshimov romanida voqealar 9 qahramon tomonidan hikoya qilinsa, Murod Muhammad Do'st asarida 3 hikoyachi (muallif, Nazar Yaxshiboyev va Saidqul Mardon) bor.

4. "Ikki eshik orasi" romanida qahramonlar uchun makon va zamon aniq bo'lsa, "Lolazor" romani qahramoni Nazar Yaxshiboyev uchun makon aniq – shifoxona, ammo zamonning chegarasi yo'q. Yaxshiboyevning tafakkur doirasi shifoxona devorlarini ham oshib o'tadi.

5. Agar O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romanida bir xil voqeani kamida uch-to'rtta qahramon nigohi bilan baholasa, Murod Muhammad Do'st asarining bosh qahramoni Nazar Yaxshiboevni uch tomonlama: muallif, o'zi va Saidqul Mardon tahlilidan o'tkazadi.

Yo'ldosh Solijonov ikkala romanga ham xos bo'lgan mushratarak jihatlarni ham sanab o'tadi:

1. Voqealar muallifdan tashqari, asardagi qahramonlar tiidan hikoya qilinadi.
2. Har ikkala romanda voqealarni bayon etish retrospektiv usul asosida qurilgan bo'lsa-da, hikoyalarning joylashuvida aniq tartib-qoidalarga rioya qilinadi.
3. Romanlarda nutq shakllari va ohanglarining rang-barangligi kuzatiladi.
4. Romanlarda yaratilgan qahramonlar orqali yozuvchilar inson taqdiri bilan jamiyat ideallarining nomutanosibliги muammosini ko'taradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi maqolada O'tkir Hoshimov va Murod Muhammad Do'stning romanlari tipologik jihatdan qiyoslangan, pirovardida XX asrning 80-90-yillari nasriga xos bo'lgan xususiyatlar ochib berilgan.

Atoqli tanqidchi Abdug'afur Rasulovning Isajon Sulton qalamiga mansub "Boqiy darbadar" romani va jahon adabiyotidagi "boqiy darbadar" obrazi qiyosiga bag'ishlangan "Obi hayot" [4:80] nomli maqolasida ham adabiy parallel janrining xususiyatlarini uchratish mumkin.

Filologiya fanlari nomzodi Qodirjon Ergashevning "Alisher Navoiy va G'arb adiblari: mushtarak mavzular"[5:56] maqolasida buyuk Navoiy ijodida qo'llanilgan qaroqchilik va firibgarlik mavzularining jahon xalqlari adiblari ijodida qay tarzda talqin qilinganligi, ularning o'xshash va farqli tomonlari tadqiq qilingan. Qaroqchilik va firibgarlik mavzusi Navoiygacha kam ishlangan mavzu bo'lsa, undan keyin G'arb ijodkorlari asarlarida keng foydalanilganligi, hatto shu mavzuda alohida yo'nalishlar yuzaga kelganligi bir qator asarlar orqali dalillanadi. Xususan, Navoiyning "Sabbayi sayyor" dostoniga kiruvchi "Mehr va Suhayl" hikoyasidagi Jobir obrazi va Shillerning "Qaroqchilar" asaridagi Karl Moor obrazining qiyosiy tahlili orqali G'arb va Sharq adabiyotidagi qaroqchi obrazi tahlil qilinadi.

Bolalar adabiyoti o'z mavzusi, mazmun va shakl rang-barangligiga ega bo'lgan adabiyot hisoblanadi. Bolalarga bag'ishlangan asarlar yaratish bir qadar qiyinchiliklarga ega. Chunki bola dunyosi, uning o'y-fikrlari, dunyoqarashiga mos asar yaratish uchun yozuvchidan bola kabi o'ylashni talab etadi. Bolalarga bag'ishlangan asarlarda uning fikrlash tarzi, ichki dunyosi, ruhiyat tasviridan tortib bola xayolotining mahsuli bo'lgan turli sehrli va fantastik voqealar tafsilotigacha beriladi. Jahon va o'zbek adabiyotida mana shunday ko'plab asarlar yaratilgan. Tadqiqotchi Ruxsora To'laboyevaning "Uchqur xayol mevalari"[6: 76] deb nomlangan maqolasida ingliz adibasi Joan Roulingning "Garri Potter" turkumidagi romanlar va o'zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" romanlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilib, pirovardida fantastik-detektiv romanning janriy xususiyatini ochib beradi. Maqolani shartli ravishda 4 qismga bo'lish mumkin. Kirish qismida tadqiqotchi bolalar adabiyoti, xususan, fantastik romanlarga xos xususiyatlarni sanab o'tadi. Maqolaning asosiy qismida ikki romanning qiyosiy tahlili keltiriladi. Fantastik romanlarga xos bo'lgan boyqush, sehrli qalpoq, sehrli chakmon, sehrli tayoq singari detallar, bayahbat odamlar, turli sehrli hayvonlar mavjudki, ularning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ikkala romanda ham shunday detallardan unumli foydalanilgan. Ammo romanlarning o'ziga xos, tafovutli jihatlari ham borki, bu yozuvchilarning original uslubi, milliylik bilan bog'liq. Romanlarning uslubi ham bir-biridan farq qiladi. X.To'xtaboyev fantastik detallardan faqat badiiy vosita sifatida foydalansa, J.Roulingda fantastik o'rinlar sehr-jodu, afsun va g'ayritabiiylikni bo'rttirishga qaratilgan. O'zbek yozuvchisi romanida hayot haqiqati sehrli hodisalarga uyg'un holda tasvirlanadi. Bu esa mazkur janrning realizmni inkor qilmasligini ko'rsatadi. Xulosadan oldingi qismda jahonning boshqa yozuvchilari romanlarining xususiyatlari keltiriladi. Demak, adabiy parallel janrida nafaqat kattalar adabiyoti haqida, balki bolalarga bag'ishlangan asarlar haqida ham tadqiqotlar yaratish mumkin ekan. Bu ham janrning imkoniyatlaridan biridir.

XXI asr boshida jahon adabiyotshunosligida ham adabiy parallel mazmun va shakl jihatidan yangilanib bordi. Vaterlo universiteti magistri Aleksandra Fornerning ingliz adibasi Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romani va "Lizzi Bennetning kundaliklari" serialini qiyoslagan holda yaratgan tadqiqotini [7] bunga misol qilib keltirish mumkin. Tadqiqotchi har ikkala asarning obrazlari, syujeti, kompozitsiyasi va badiiy g'oyasini muqoyasa qilib, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni tahlil qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi so'ngida A.Fornier o'zining xulosalarini berib o'tadi. Mazkur tadqiqotni adabiyot va san'atga aloqador parallel sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotida ham shu kabi tadqiqotlar yaratilgan. Masalan, "O'tkan kunlar" romanining ikki davrda ekranlashtirilgan variantini qiyoslaydi, original asar va uning kinolashtirilgan variantidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilinadi.

Adabiy parallel janri kompozitsiyasida sarlavha ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sarlavha tanqidiy ishlarning keng maydonini – tahlil qilish, umumlashtirish, baholash, talqin qilish, san'at va hayot o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan ishlarning mohiyatini bir jumla yoki bir necha so'z bilan ochib beruvchi elementdir. Muallif to'g'ri tanlangan sarlavha orqali kitobxonning e'tiborini muhokama mavzusiga boshdan oq jalb eta oladi. Sarlavha asarning mohiyatini o'zida aks ettirishi va ixcham bo'lishi kerak. Sarlavhani juda keng qilish shart emas. Aks holda barcha mohiyatni talqin qilib bo'lmaydi. Ilmiy-nazariy parallellarning tipologik umumiyliги ularning nomlarida yorqin ko'rinadi.

Sarlavhalar quydagicha tanlanishi mumkin:

- 1) muallifning asosiy g'oyasini shakllantiruvchi jumla;
- 2) umumiy fikr yoki tavsif;
- 3) mazmuni va uslubi bilan mos mashhur asardan iqtibos"[8].

Adabiy parallellarda, ko'pincha, sarlavha qiyoslanayotgan ijodkorlarning nomlari bilan ataladi. Masalan, "Navoiy va Attor", "Navoiy va Dante", "Abdulla Qodiriy va Jon Milton", "Oybek va Emil Verxarn", "Shekspir va Marlo", "Cho'lpon va Kamyu" kabi. Ammo har doim ham bunday sarlavha adabiy parallelga tegishli bo'lavermaydi. Chunochi, adabiyotshunos P.Shamsiyevning "Jomiy va Navoiy", A.Qosimovning "Sa'diy va Navoiy" kabi asarlarida ikki ijodkor asarlarining tipologik tahlili emas, balki ijodkorlarning biri-ikkinchisiga bo'lgan adabiy ta'siri haqida so'z yuritiladi. Adabiy parallel bo'lishi uchun esa qiyoslanayotgan ikki obyekt teng asosda tahlil qilinishi lozim. Bundan tashqari, adabiy parallel sarlavhasida ma'lum bir adabiy muammo yoki tahlilga tortilishi niyat qilingan jihat ham aks etishi mumkin. Misol uchun, Suvon Melining "Mushtarak uchlik", Qodirjon Ergashevning "Navoiy va jahon adabiyoti: mushtarak mavzular", A.Allamberganovning "Badiiy adabiyotda Beruniy obrazining talqini" kabi parallellarda shunga guvoh bo'lamiz. Adabiy parallellarning sarlavhasi majoziy ma'no kasb etishi ham mumkin. Masalan, tanqidchi Abdug'afur Rasulovning "Obi hayot", Ruxsora To'laboyevaning "Uchqur xayol mevalari" maqolalari shu guruhga mansub bo'la oladi. Adabiy parallel sarlavhasiga muqoyasa qilinuvchi obyektlarning nomlari chiqadi. Masalan, "Ikki eshik orasi" dan "Lolazor"ga o'tguncha, "Mis otlig" dan "Jez otligqacha" kabi. Bunda sarlavhani o'qiboq, maqola qanday asarlar haqida ekanligini bilish mumkin.

**Xulosa.** Mustaqillik davrida yaratilgan adabiy parallellar mavzu, mazmun va g'oyaviy jihatdan ham yangilanish bosqichiga kirdi. Endi mazkur janrdan o'zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlarni jahon adabiyoti kontekstida o'rganish yo'lga o'tildi. Istiqloq davri tanqidchiligida ijtimoiy tahlil qatori mikroanaliz, qiyosiy-tarixiy, turli xil zamonaviy oqim va yo'nalishlarni talqin qilish kuchayib bormoqda. "Bu davrda (istiqloq davri tanqidchiligida) adabiy tanqidning taqriz, adabiy obzor, muammoli maqola, esse, xotira, adabiy portret, maktub, bahs, monografiya, adabiy suhbat, adabiy o'ylar kabi janrlari rivojlandi, salmoqli izlanishlar olib borildi" [1:215]. Ko'rinadiki, adabiy tanqidning boshqa janrlari singari adabiy parallel ham rivojlanish yo'lga kirdi. Istiqloq davri adabiyotshunosligi va tanqidchiligida adabiy parallel janri sho'ro davrida yaratilgan parallellardan janr imkoniyatlarining kengayganligi, tadqiqot obyekti qamrov doirasining o'sganligi, jahon adabiyoti konteksti doirasida ish ko'rishi, san'atning boshqa turlari bilan integratsiyalashuvi kabi xususiyatlar bilan farq qiladi. Janrning davrlar osha taraqqiy topishi esa uning yashovchanligini belgilab beradigan muhim omil sanaladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент, 2012. - Б.214.
2. Холбеков М. Шекспир ва Марло // Шарқ юлдузи, 2008, 1-сон.
3. То'uchiyeva Ш. Cho'lpon va Kamyu // Jahon adabiyoti, 2000, 6-сон.
4. Расулов А. Оби ҳаёт // Жаҳон адабиёти, 2014, 3-сон.
5. Ergashev Q. Alisher Navoiy va G'arb adiblari: mushtarak mavzular. // Jahon adabiyoti, 2017, 2-сон.
6. To'laboyeva R. Uchqur xayol mevalari // Jahon adabiyoti, 2011, 6-сон.

7. Alexandra Fournier (2016). "My Name Is Lizzie Bennet": Successfully Adapting Jane Austen's "Pride and Prejudice" (1813) for the Twenty-First Century with "The Lizzie Bennet Diaries" (2012-2013). UWSpace. <http://hdl.handle.net/10012/10440>.

8. Қурбонова О. Иброҳим Ғафуровнинг мунаққидлик маҳорати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2022. – Б. -120.